



BIOKIMYO
AKSIYADORLIK JAMIYATI

“BIOKIMYO” AJ
aksiyadorlarining navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishi tomonidan
«TASDIQLANGAN»

2024 yil 29 fevral

Yig‘ilish raisi **O. Xurramov**



«BIOKIMYO» AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVI

(yangi tahriri)

Yangiyo'l shahar - 2024 yil

MUNDARIJA

I. Umumiy qoidalar	3
II. Jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili, yuridik maqomi	3
III. Jamiyat faoliyatining maqsadi va sohasi (asosiy yo'nalishlari). Qo'shimcha faoliyat turlari	4
IV. Ustav fondi	5
V. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	6
5.1. Aksiyalar	6
5.2. Aksiyalar joylashtirish	6
5.3. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda aksiyalarni imtiyozli olish huquqi	8
5.4. Joylashtirilgan aksiyalarni Jamiyat tomonidan olish	9
VI. Aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari	10
VII. Daromadi (foyda)ni taqsimlash, dividendlarni to'lash va zararni qoplash .	11
VIII. Zaxira va boshqa fondlar	12
IX. Jamiyatni boshqarish va Jamiyat faoliyatini nazorat qilish	13
9.1. Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi	13
9.2. Kuzatuv kengashi	18
9.3. Boshqaruv	23
9.4. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi	27
9.5. Ichki audit Xizmati	28
9.6. Auditorlik tashkiloti	29
9.7. Korporativ maslaxatchi.	29
X. Hisob va hisobot	30
XI. Xujjatlarni saqlash	30
XII. Aksiyadorlarga jamiyat xujjatlaridan foydalanish imkoniyatini berish.	31
XIII. Jamiyat va Jamiyatning affillangan shaxslari to'g'risidagi axborot	31
XIV. Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish	32
XV. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish ..	32
XVI. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish	32
XVII. Yakuniy qoidalar	32

I. Umumiy qoidalar

1.1. «BIOKIMYO» aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) mazkur Ustavi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6-maydagi 370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonuni (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi 2015 yil 3 iyundagi O'RQ-387 bilan tasdiqlangan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni, 2023 yil 20 apreldagi O'zbekiston Respublikasi PQ-814 son Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021 yil 29 martdagi 166-son qarori, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015 yil 31 dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv kodeksi" (bundan buyon matnda Kodeks deb yuritiladi), 2018 yil 20 apreldagi 15-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv qoidalar" (bundan buyon matnda Qoida deb yuritiladi) hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi Toshkent viloyat boshkarmasining 1994 yil 30 maydagi 271 - O raqamli va 1995 yil 17 iyuldagi 994 - O raqamli buyruqlariga muvofiq YAngiyo'1 Bioxim zavodini qayta tashkil kilish yuli bilan tashkil kilindi.

II. Jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili, yuridik maqomi

2.1. Jamiyatning to'liq firma nomi:

davlat tilida lotin alifbosida:

to'liq nomi – «**BIOKIMYO**» aksiyadorlik jamiyati;

qisqartirilgan nomi – «**BIOKIMYO**» AJ;

davlat tilida kirill alifbosida:

to'liq nomi – «**BIOKIMYO**» aksiyadorlik jamiyati;

qisqartirilgan nomi – «**BIOKIMYO**» AJ;

rus tilida:

to'liq nomi – **Акционерное общество «BIOKIMYO»;**

qisqartirilgan nomi – **АО «BIOKIMYO»;**

ingliz tilida:

to'liq nomi – **Joint-stock company «BIOKIMYO»;**

qisqartirilgan nomi – **JSC «BIOKIMYO».**

Jamiyat o'z firmasining nomidan foydalanish mutlaq huquqiga egadir.

2.2. Jamiyatining joylashgan eri va pochta manzili: **O'zbekiston Respublikasi, 112004, Toshkent viloyati, Yangiyul shaxri, Kimyogar ko'chasi, 1-uy.**

Elektron pochta manzili: **info@biokimyo.uz**

Jamiyat o'zining joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni yozma bildirish yuborish yo'li bilan, aksiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart.

2.3. Jamiyat **cheklanmagan muddatga** tashkil qilingan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ldi.

2.4. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining Ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z

nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.5. Jamiyat o'z faoliyati natijasida olingan va xarid qilingan aksiyalarni sotib olish hisobiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa asoslarga ko'ra berilgan mol-mulkning mulkdori hisoblanadi.

2.6. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida Jamiyat amaldagi qonunchilikka muvofiq barcha turdagi shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirishga haqli.

2.7. Jamiyat qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishga, boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, filiallar tuzish va vakolatxonalar ochishga, uyushma va assotsiatsiyalarga kirishga haqlidir.

2.8. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan eri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

2.9. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

2.10. Jamiyat belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida bankda hisob varaqlar ochishga haqlidir.

2.11. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

III. Jamiyat faoliyatining maqsadi va sohasi (asosiy yo'nalishlari).

Qo'shimcha faoliyat turlari

3.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi o'z faoliyati natijasidan foyda olish.

3.2. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) quyidagilardan iborat:

ozuqa (iste'mol) va texnik spirti ishlab chiqarish va sotish,

issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va sotish,

kimyoviy va maishiy maxsulotlarni ishlab chiqarish va sotish.

3.3. Jamiyat o'zining yuqoridagi asosiy yunalishlarini bajarish bilan birgalikda qo'yidagi faoliyatlar bilan qo'shimcha ravishda shug'ullanish mumkin:

investitsiya, innovatsiya, tashqi iktisodiy, ilmiy, proektlashtirish marketing vositachilik faoliyati,

kurilish montaj ishlari, ishga tushirish va sozlash,

servis xizmati, maxsulot xarid qilish,

binolarni, kuchmas va kuchar mulklarni ijaraga berish;

qishloq xo'jaligi, chorvachilik va parrandachilik maxsulotlarini etishtirish va sotish;

Jamiyat maqsadlariga javob beruvchi, qonunchiligi bilan ta'qiklanmagan boshqa istalgan faoliyat bilan shug'ullanish.

3.4. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari qonunchilikda o'rnatilgan tartibda litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

IV. Ustav fondi

4.1. Jamiyatning Ustav fondi aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi hamda Jamiyat mol-mulkinging Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

4.2. Jamiyatning Ustav fondi **19 139 488 000** (o'n to'qqiz milliard bir yuz o'ttiz to'qqiz million to'rt yuz sakson sakkiz ming) so'mni tashkil qiladi hamda nominal qiymati **3 350** (uch ming uch yuz ellik) so'm bo'lgan **5 713 280** (besh million etti yuz o'n uch ming ikki yuz sakson) dona oddiy aksiyalarga (joylashtirilgan aksiyalarga) bo'lingan.

4.3. Jamiyatning Ustav fondi:

qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin; aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.4. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

4.5. Qo'shimcha aksiyalar faqat e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirish mumkin. Bunda jamiyat ustavida ko'rsatilgan, e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

4.6. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish xaqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyatni Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

4.7. Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, ularni joylashtirish tartibi, muddatlari xamda shartlari belgilanadi.

4.8. Jamiyat Ustav fondini uning o'z kapitali xisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida o'sha turdagi unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4.9. Jamiyatning Ustav fondi ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.10. Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

V. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar

Jamiyat qonunchilik va mazkur Ustaviga muvofiq aksiyalar, korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

5.1. Aksiyalar

5.1.1. Jamiyat chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari quyidagilardan iborat:

Jamiyatning aksiyalar nominal qiymati **3 350** (uch ming uch yuz ellik) so'mdan bo'lgan **19 139 488 000** (o'n to'qqiz milliard bir yuz o'ttiz to'qqiz million to'rt yuz sakson sakkiz ming) so'mlik **5 713 280** (besh million etti yuz o'n uch ming ikki yuz sakson) dona oddiy aksiyalardan tashkil topadi.

5.1.2. Jamiyat qo'shimcha **17 139 840** (o'n etti million bir yuz o'ttiz to'qqiz ming

sakkiz yuz qirq) dona nominal qiymati **3 350** (uch ming uch yuz ellik) so'm bo'lgan (e'lon kilingan) aksiyalarni joylashtirishga xaqlidir.

5.1.3. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin. Aksiyalarni qo'shimcha chiqarish faqat Jamiyatning ilgari joylashtirilgan barcha aksiyalari to'liq to'langandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorida (qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risida qarori) joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilanadi.

5.1.4. Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari haqida qonunchilikda nazarda tutilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.1.5. Jamiyatning oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

5.1.6. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – aksiyador deb e'tirof etiladi.

5.1.7. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

5.1.8. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

5.1.9. Jamiyatning oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

5.2. Aksiyalarni joylashtirish

5.2.1. Jamiyat tomonidan aksiyalar joylashtirish qimmatli qog'ozlar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin qimmatli qog'ozlar chiqarilishining shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2.2. Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o'tkazishga haqli.

Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazishga haqli, yopiq obuna o'tkazish imkoniyati qonun hujjatlarida va mazkur Ustavida cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

5.2.3. Aksiyalar ochiq obuna yo'li bilan joylashtirilganda Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalarni joylashtirish boshlanishiga kamida **ikki hafta** qolganida, quyidagi axborotni oshkor etadi:

aksiyalar emissiya risolasining matni bilan tanishib chiqish joyi va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

jamiyatning to'liq va qisqartirilgan nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, davlat statistikasi va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya raqamlari;

faoliyatning asosiy yo'nalishlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat) turlari;

mustaqil reyting bahosi, agar uning shunday bahosi bo'lsa, tegishli izohlari bilan;

aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq aksiyalarni chiqarish va joylashtirish shartlari.

Ushbu axborotni:

agar Jamiyatning qimmatli qog'ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa, majburiy ravishda oshkor qilish faqat fond birjasining rasmiy veb-saytida amalga oshiriladi;

5.2.4. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida o'tkaziladi.

5.2.5. Aksiyalar tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida ommaviy joylashtirilgan taqdirda ularning chiqarilishi, joylashtirish hajmidan qat'i nazar, amalga oshgan deb e'tirof etiladi.

5.2.6. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

5.2.7. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

5.2.8. Jamiyatning Ustav fondi ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.2.9. Jamiyatning aksiyalarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatni qo'shimcha aksiyalar haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi.

5.2.10. Jamiyat aksiyalarini to'lash hisobiga kiritilayotgan mol-mulkning pul bahosini belgilashning tashkil etilishi Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Agar Jamiyatning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy xisoblash miqdorining **ikki yuz** baravaridan ko'pni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.

5.2.11. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

5.2.12. Jamiyat tomonidan Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran **bir yildan** oshmasligi kerak.

Jamiyatning joylashtirilmagan aksiyalari ushbu bandining ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi kerak.

5.2.13. Jamiyat ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan aksiyalarni joylashtirish muddati o'tgan kundan keyin **qonunchilikda belgilangan muddatda**, agar barcha aksiyalar ushbu muddat o'tishidan oldin joylashtirilgan bo'lsa – ushbu chiqarishdagi so'nggi aksiyalarni joylashtirish kunidan keyin **qonunchilikda belgilangan muddatda** ro'yxatdan o'tkazuvchi organga aksiyalarni chiqarish natijalari to'g'risidagi bildirishnomani taqdim etadi.

5.3. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda imtiyozli olish huquqi

5.3.1. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega.

5.3.2. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

5.3.3. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

5.3.4. Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran **o'n kun** ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan Jamiyatni Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi bo'yicha olishni taklif etishi shart.

Bildirish matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

5.3.5. Imtiyozli huquqning amal qilish muddatini bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran **o'n kundan** kam va **o'ttiz kundan** ko'p bo'lishi mumkin emas.

5.3.6. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan eri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak.

5.3.7. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi.

5.3.8. Jamiyat imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganiga qadar aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ularni olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas.

5.3.9. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan tartibda Jamiyat tomonidan realizatsiya qilinadi.

5.3.10. Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

5.4. Joylashtirilgan aksiyalarni Jamiyat tomonidan olish

5.4.1. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Jamiyat Ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

5.4.2. Agar muomalada qolgan aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat Ustav fondining qonunchilikda nazarda tutilgan eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularning bir qismini olish yo'li bilan Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

5.4.3. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularni olish yo'li bilan Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qabul

qilingan qarori asosida Jamiyat tomonidan olingan aksiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

5.4.4. Aksiyalarni olish to'g'risidagi qarorda olinadigan aksiyalarning turlari, Jamiyat oladigan har bir turdagi aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilab qo'yilishi kerak.

5.4.5. Aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to'lash pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarni olish muddati aksiyalarni olish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi, bu muddat **o'n kundan** kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi, bu qiymat jamiyatning aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish xuquqi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan xarakati natijasida qiymatning o'zgarishi xisobga olinmagan xolda aniqlanadi.

5.4.6. Qaysi muayyan turdagi aksiyalarni olish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, o'sha aksiyalarning egasi bo'lgan har bir aksiyador mazkur aksiyalarni sotishga haqli, Jamiyat esa ularni olishi shart. Agar Jamiyat tomonidan olinishi to'g'risida aksiyadorlarning arizalari tushgan aksiyalarning umumiy soni Qonuning **37 modda** bilan belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda Jamiyat olishi mumkin bo'lgan aksiyalarning sonidan ortiq bo'lsa, aksiyadorlardan arizada ko'rsatilgan talablarga mutanosib ravishda aksiyalar olinadi.

5.4.7. Aksiyalar olinadigan muddat boshlanishiga kechi bilan **o'n kun** qolganda Jamiyat muayyan turdagi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarni Jamiyat tomonidan aksiyalar olinishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor etishi shart. Bildirishda mazkur Ustavning **5.5.4. bandida** ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar bo'lishi lozim.

5.4.8. Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

5.4.9. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular Jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran **bir yildan** kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

5.4.10. Jamiyat tomonidan o'z aksiyalarining olinishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, mustaqil ravishda yoki qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi.

5.4.11. Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

VI. Aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari

6.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;

Depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

Olgan dividendini erkin tasarruf etish;

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

O'ziga etkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

O'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

Qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga, Korporativ boshqaruv kodeksiga va mazkur Ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.2. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

6.3. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni – mazkur aksiyalar egasini Konunida belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

6.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar Qonunga va Jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

6.5. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:

Jamiyatga zarar etkazilishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

imkon qadar Jamiyat boshqa organlari tomonidan qarorlar qabul qilinishini cheklaydigan yoxud to'sqinlik qiladigan harakatlar (harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaslik, aksiyadorning qonunchilik bilan nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirish bundan mustasno;

qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorlar bilan nazarda tutilgan muddat, tartib va usullarda aksiyalarni to'lash;

Ustav talablari hamda Jamiyat boshqaruv organlari qarorlarini bajarish;

aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariyni qonunchilikda belgilangan tartibda o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga etkazilgan zarar uchun Markaziy depozitariy va aksiyadorning o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariy javobgar bo'lmaydi;

Jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni saqlash;

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga, xujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan jamiyat Boshqaruvi faoliyatiga to'sqinlik qilishiga haqli emas;

qonunchilik, mazkur Ustav hamda Jamiyatning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni amalga oshirish.

6.6. Aksiyadorlar qonunchilikda va mazkur Ustavda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

VII. Daromadi (foyda)ni taqsimlash, dividendlarni to'lash va zararni qoplash

7.1. Soliqlar va majburiy to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng Jamiyat tasarrufida qolgan daromad (foyda)ni taqsimlash Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko'ra aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

7.2. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

7.3. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.4. Dividend aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

7.5. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.6. Jamiyat **moliyaviy yil** natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7.7. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash (**moliyaviy yil natijalariga ko'ra**), dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

7.8. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

7.9. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran **oltmish** kundan kech bo'lmasligi lozim. Xisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng xuquqlariga rioya etilgan xolda amalga oshiriladi.

Jamiyat tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to'lovini amalga oshirish huquqiga ega.

7.10. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan **uch yil** ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.11. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

Jamiyat aksiyadorlarining reestridan olingan, Jamiyat tomonidan tasdiqlangan ko'chirma hamda Jamiyat buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana to'g'risidagi ma'lumotnomasi ayirboshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

7.12. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

7.13. Dividendlar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Jamiyatning aybi bilan to'lanmagan taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi.

Jamiyat tomonidan hisoblangan dividendlarni va penyalarni to'lashni aksiyador sud tartibida talab qilishga haqli. Aksiyadorning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda dividendlarni to'lash Jamiyat tomonidan rad etilgan taqdirda, Jamiyatga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot deb e'lon qilish tartib-taomili qo'llaniladi.

7.14. Jamiyat:

agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning Ustav fondi va Zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

7.15. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida, jamiyatning rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

7.16. Jamiyat faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan zararlarni to'lash (qoplash) Zaxira fondi hisobiga amalga oshiriladi. Zararlarni to'lash (qoplash) uchun Zaxira fondi mablag'lari etishmagan taqdirda, zararlar aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori asosida Jamiyatning qonunchilik bilan yo'l qo'yiladigan boshqa mablag'lari hisobiga to'lanishi (qoplanishi) mumkin.

VIII. Zaxira va boshqa fondlar

8.1. Jamiyat Ustav fondining **15 (o'n besh) foizi** miqdorida Zaxira fondini tashkil etiladi. Jamiyatning Zaxira fondi Jamiyatning Ustav fondida belgilangan miqdorga etguniga qadar har yili sof foydadan kamida **5 (besh) foiz** miqdorida majburiy ajratmalar o'tkazish orqali shakllantiriladi.

8.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning Zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Jamiyatning Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

8.3. Jamiyatning Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.4. Jamiyat boshqa maqsadli fondlarni tashkil etishga haqli. Fondlarning maqsadi, miqdori, tashkil qilish manbalari va foydalanish tartibi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

IX. Jamiyatni boshqaruv organlari. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi.

Jamiyat faoliyatini nazorat qilish.

9.1. Jamiyatni boshqarish qonunchilik, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015 yil 31 dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv kodeksi", 2018 yil 20 aprelda 15-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv qoidalari", mazkur Ustav hamda Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.2. Jamiyatni boshqarish aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi hamda Ijroiya organi – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi – Jamiyat boshqaruvining oliy organi.

Kuzatuv kengashi – Jamiyat faoliyatining umumiy boshqaruvini amalga oshiruvchi Jamiyatning boshqaruv organi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilish bundan mustasno.

Boshqaruv – Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi kollegial ijro organi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

9.3. Minoritar aksiyadorlarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan **minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi** tashkil etiladi.

9.4. Jamiyatning faoliyatini nazorat qilish jamiyatning **ichki audit xizmati, auditorlik tashkiloti va korporativ maslaxatchisi** tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish kuzatuv kengashining **audit qo'mitasi** tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatning **ichki audit xizmati** Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va unga xulosalarni berish Jamiyat bilan tuzilgan shartnoma asosida Jamiyat vakolatli organ tomonidan belgilangan **auditorlik tashkiloti** amalga oshiradi.

Korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini jamiyat kuzatuv kengashiga xisobdor bo‘lgan **korporativ maslaxatchisi** amalga oshiradi.

9.1. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi

9.1.1. **Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi** Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

9.1.2. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi o‘z ishini qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan “Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomi asosida amalga oshiradi.

9.1.3. Jamiyat **har yili** aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini (aksiyadorlarning yillik Umumiy yig‘ilishini) o‘tkazishi shart.

9.1.4. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin **olti oydan** kechiktirmay xar yili **iyun oyining ikkinchi yarmida** o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig‘ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashini saylash to‘g‘risidagi masalalar hal etiladi, Jamiyatning yillik hisobotlariga muvofiq jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi xisobotlari va Qonunda belgilangan boshqa hujjatlar ko‘rib chiqiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish chog‘ida umumiy yig‘ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berishning umumiy tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

9.1.5. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan Umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra uning o‘z tashabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida **besh** foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o‘tkaziladi.

9.1.6. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

✓ jamiyat Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Jamiyat Ustaviga Jamiyatning Ustav fondini ko‘paytirish to‘g‘risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish xaqidagi qarorlar bundan mustasno;

✓ jamiyatni qayta tashkil etish;

✓ jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

✓ jamiyat Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining son tarkibini belgilash, ularning a‘zolarini saylash va a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

✓ e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdori belgilash;

✓ jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;

✓ o‘z aksiyalarini olish;

✓ jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash), bunda Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlovda xorijiy menedjerlar xam ishtirok etishi mumkin;

✓ jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

✓ Jamiyat Kuzatuv kengashining o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini xulosalarini eshitish;

- ✓ aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
 - ✓ aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
 - ✓ jamiyat aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv to'g'risidagi ularning faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek Jamiyatning mazkur organlari tomonidan qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilovchi nizomlarni tasdiqlash;
 - ✓ jamiyatning ichki nazorat to'g'risidagi, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida xarakat qilish tartibi, komplaens xizmati to'g'risidagi nizomlarini va boshqa ichki korporativ nizomlarni tasdiqlash;
 - ✓ jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan xolda jamiyatning o'rta va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
 - ✓ xar yili mustaqil professional tashkilotlar-maslahatchilarni jalb qilgan xolda biznes-jarayonlar va loyihalarni Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - ✓ xomiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - ✓ Boshqaruvning affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni belgilash;
 - ✓ majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - ✓ elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan xolda), shuningdek o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);
 - ✓ sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);
 - ✓ jamiyat mablag'lari xisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash xarajatlarini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);
 - ✓ aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi jamiyat Boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (xisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;
 - ✓ jamiyat Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga to'lanadigan xaq va kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorini belgilash. Bunda Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan xaq miqdori Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.
 - ✓ Qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - ✓ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.
- Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Boshqaruv organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.
- Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining mutloq vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.
- 9.1.7. Quyidagi masalalar bundan mustasno:
- jamiyat Ustav fondini ko'paytirish, shuningdek jamiyat Ustaviga jamiyat ustav fondini ko'paytirish xamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash;
- jamiyatni qayta tashkil etish;

jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

jamiyatning Boshqaruvini tuzish, uning a'zolarini saylash(tayinlash), raxbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

jamiyatning Boshqaruviga to'lanadigan xaq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash:

9.1.8. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega.

9.1.9. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (**oddiy ko'pchilik**) ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda, jumladan Qonunning 88-moddasining beshinchi qismida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning **to'rt dan uch qismidan** iborat ko'pchilik (**malakali ko'pchilik**) ovozi bilan qabul qilinadi.

Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

9.1.10. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

9.1.11. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini kun tartibiga masalalar kiritishga taklif ko'rib chiqish, uni chaqirish, shuningdek aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartiblari Qonunga muvofiq Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi.

Jamiyat aksiyadorlari Umumiy yig'ilishi kun tartibiga doir takliflar jamiyatning kamida bir foiz ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar tomonidan, Jamiyat moliyaviy yili tamom bo'lgandan keyin to'qson kundan kechikmay yuboriladi. Ko'rsatib o'tilgan aksiyadorlar, shuningdek aksiyadorlar yillik Umumiy yig'ilish kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyatning Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatishga haqlidir, ularning soni ushbu organlar son tarkibidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning bir foizidan kam bo'lmagan aksiyadorlar (aksiyador) ga Kuzatuv kengashi a'zolariga o'zlarini ko'rsatgan nomzodlarini ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran **uch ish kundan** kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

9.1.12. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

9.1.13. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran **yigirma besh kundan** kam va **o'ttiz kundan** ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

9.1.14. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan **yigirma bir kundan** kechiktirmay, lekin uzog'i bilan **o'ttiz kun oldin** Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

9.1.15. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan Jamiyat

Audit qo‘mitasi va auditorlik tashkilotining xulosasi, jamiyat kuzatuv kengashining direktor (boshqaruv raisi), ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to‘g‘risidagi xulosasi, shuningdek jamiyatning Kuzatuv kengashi a‘zolariga nomzodlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, Jamiyatning Ustaviga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi kiradi. SHu jumladan, kuzatuv kengashining umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi masala bo‘yicha pozitsiyasi yuzasidan zarur ma‘lumotlar taqdim etiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ijroiya organining mukofot va kompensatsiyalari miqdori oshkor etiladi xamda taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning jamiyatning dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi, shuningdek, zarurat tug‘ilganda sof foydaning muayyan qismini jamiyatni rivojlantirish xtiyojlariga yo‘naltirishning tushuntirishi va iqtisodiy asoslanishini e‘lon qiladi.

Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo‘lgan qo‘shimcha axborotning (materiallarning) ro‘yxati qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

Aksiyadorlarga berilishi lozim bo‘lgan axborotdan (materiallardan) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilguniga qadar va uni o‘tkazish vaqtida foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

9.1.16. Boshqaruv organlari barcha aksiyadorlarga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar, bir xil munosabatni ta‘minlaydi.

9.1.17. Boshqaruv, kuzatuv kengashi a‘zolari, shuningdek, auditorlik tashkiloti vakili umumiy yig‘ilishda o‘z xisobotlari bilan shaxsan ishtirok etishlari shart.

9.1.18. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi raisi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining audio-video yozuvi va internet tarmog‘idagi translyasiyasiga ruxsat berish vakolatiga ega.

9.1.19. Ovozlarini sanab chiqish, aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro‘yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan **Sanoq komissiyasi** tuzilib, uning a‘zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoq komissiyasi o‘z ishini mazkur Ustav va aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Sanoq komissiyasi to‘g‘risida”gi nizom asosida amalga oshiradi.

Sanoq komissiyasi aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishida kvorum bor yoki yo‘qligini aniqlaydi, Umumiy yig‘ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo‘yiladigan masalalar bo‘yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta‘minlaydi, ovozlarini sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to‘g‘risida bayonnoma tuzadi.

Ovoz berish yakunlari to‘g‘risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishining kvorumi mavjudligi haqidagi ma‘lumotni o‘z ichiga oladi.

Ovoz berish yakunlari to‘g‘risidagi bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin aksiyadorlarning qog‘ozdagi yoki elektron jismdagi ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va jamiyat idoraviy arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

9.1.20. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan **uch ish kuni** oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo‘ladi.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

9.1.21. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ishonchnoma Qonunning 67-moddasiga muvofiq tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

Aksiyador aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

9.1.22. Agar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami **ellik foizidan** ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy Umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami **qirq foizidan** ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

9.1.23. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovoz berish «**jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz**» prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

9.1.24. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berilganda ovoz berish byulletenlaridan foydalanilmaydi. Bunda ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniyligi aksiyadorni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olishda foydalaniladigan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxsga shunday shaxs xisobidan o'zi to'ldirilgan byulleten nusxasini olish imkoniyati beriladi.

9.1.25. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan Umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali **qonunchilikda belgilangan muddatda** aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi.

9.1.26. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin **o'n kundan** kechiktirmay **ikki** nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

9.2. Kuzatuv kengashi

9.2.1. Jamiyatning **Kuzatuv kengashi** Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

9.2.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z ishini qonunchilik, Korporativ boshqaruv kodeksi va qoidalari tavsiyalari, mazkur Ustav va aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiradi.

9.2.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni **etti** kishidan iborat.

Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari Qonunda va mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan **uch yil** muddatga saylanadi.

9.2.4. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Jamiyat Boshqaruv organi a'zolari, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga va unga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari jamiyatning "Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom"i bilan belgilangan yoki aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

Kuzatuv kengashi a'zoli uchun nomzodlarga doir malaka talablari, shu jumladan, Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan berilgan korporativ boshqaruv malaka sertifikatini yoki malaka attestati mavjudligi talab qilinadi (qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollardan tashqari). Jamiyat kuzatuv kengashi a'zoli uchun davlat ulushi bo'yicha kuzatuv kengashiga nomzodlarni ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan joriy qilingan tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan a'zolar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi ko'rsatilishi kerak.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan **ko'pchilik** ovoz bilan qayta saylashga haqli.

9.2.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

✓ jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatgichlari, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat Boshqaruvning xisobotini muntazam ravishda eshitib borgan xolda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

✓ xomiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash xamda bu borada qaror qabul qilish xuquqini faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va qonun xujjatlarida belgilangan doirada, bu xaqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda berish;

- ✓ jamiyat tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirishni ta'minlash;
- ✓ korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash jamiyat kuzatuv kengashining qarori bo'yicha tanlov asosida o'tkazish;
- ✓ jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish xamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- ✓ aksiyalarni joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilash;
- ✓ aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;
- ✓ emissiya risolasini tasdiqlash;
- ✓ korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish va tasdiqlash;
- ✓ qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- ✓ qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror va (yoki) risolaga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va qimmatli qog'ozlar joylashtirilishi va muomalasini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilish;
- ✓ jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida qaror qabul qilish;
- ✓ korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- ✓ aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan **Qonun 65-moddasining o'n birinchi qismida** nazarda tutilgan hollar mustasno;
- ✓ aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- ✓ aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- ✓ aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va yig'ilish o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- ✓ jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash masalalarni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- ✓ mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- ✓ jamiyat Boshqaruv son tarkibini tuzish va Boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, bunda Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) tanlov asosida amalga oshiriladi va umumiy yig'ilishda tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi. Tanlovda xorijiy menedjerlar xam ishtirok etishi mumkin;
- ✓ jamiyatning Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq, mukofot va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari "past" yoki "qoniqarsiz" deb baholangan taqdirda ijro organi tomonidan o'tgan hisobot yilida to'langan mukofotni to'liq Jamiyatga qaytarish masalasini ko'rib chiqish;
- ✓ Boshqaruv Raisini va Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarni amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilish;
- ✓ yillik biznes-rejasini joriy yilning **1 dekabridan kechiktirmay** ma'qullash va tasdiqlash;
- ✓ ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xarajatlar smetasi, ish rejasini tasdiqlash, xodimlarini tayinlash xamda hisobotini **har chorakda** eshitib borish va tasdiqlash;
- ✓ korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- ✓ raxbar lavozimlarga tanlov e'lon qilish, tanlovning ob'ektiv mezonlari ularning yakuni bo'yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menedjerlarni tanlab olish jarayonlari bayon etilgan tanlovlar reglamentini tasdiqlash;
- ✓ jamiyatning "Axborot siyosati to'g'risidagi nizomini" tasdiqlash;
- ✓ jamiyat kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organi a'zolari, jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar) dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruxlari) tashkil etish va nizomlarini tasdiqlash;
- ✓ jamiyat korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni jalb qilish;
- ✓ korporativ boshqaruv kodeksini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazorat qilishni ta'minlash;
- ✓ kuzatuv kengashi yig'ilishlarini so'rov o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, videokonferens-aloqa rejimida o'tkazish xolatlari va tartibini belgilash;
- ✓ aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro xamkorlik uchun mas'ul xodim yoki bo'linmani belgilash;
- ✓ jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- ✓ auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- ✓ auditorlik tekshiruvini, shu jumladan halqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy xisobotlarning halqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va e'lon qilish bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilish;
- ✓ Boshqaruv raisi o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi va natijadorligining asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlash;
- ✓ jamiyatda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari natijadorligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni tinglash;
- ✓ jamiyat xaridlar jarayoni shaffofligi va asosiligi, shu jumladan mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek valyuta resurslaridan samarali foydalanilishini har chorakda tashqi auditdan o'tkazish mexanizmini joriy etish;
- ✓ jamiyat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;
- ✓ jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha xarajatlar smetasini tasdiqlash;
- ✓ jamiyat ijro organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirganligi uchun alohida mukofot (mazkur Nizomning ko'zda tutilgan rag'batlantirishdan tashqari) yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilash;
- ✓ asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;
- ✓ jamiyat tomonidan mulkni begonalashtirish, uni (ko'chmas mulk ob'ektlarini) sotish masalalari shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi

korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish, bunda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishgan xolda amalga oshirish;

✓ Jamiyat Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilgandan so'ng, uni e'lon qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilish;

✓ dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

✓ Jamiyatning Zaxira fondidan va boshqa fonlaridan foydalanish;

✓ Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

✓ Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

✓ Qonunning **8 va 9-boblarida** va mazkur Ustavda nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

✓ Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

✓ Jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

✓ Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga Qonun, korporativ boshqaruv Kodeksi, qoidalari va mazkur Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi, jamiyat ustavi va rivojlanish rejasini tomonidan qo'yilgan vazifalarning bajarilishi uchun ijroiya organi vakolatiga kiruvchi masalalarni u tomondan mustaqil hal etish talabini joriy etadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi Boshqaruv, jamiyatning ichki nazorat organi, tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarur bo'lganda, jamiyat rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etadi.

Kuzatuv kengashi jamiyatning strategik maqsadi sifatida aksiyalar narxining o'sishiga olib keluvchi moliyaviy baqarorlikni ta'minlash, mexnat unumdorligi va mahsulot raqobatdoshligini oshirish, ishlab chiqarish, energiya samaradorligi va eksport ko'rsatgichlarining o'sishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirishni belgilaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning Boshqaruv organiga o'tkazilishi mumkin emas.

9.2.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

9.2.7. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zosining, shuningdek Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida **bir foiziga** egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladi va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zolariga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritiladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan **har chorakda kamida bir marta** Kuzatuv kengashining boshqa a'zolariga habar berish yo'li bilan chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislari **chorakda bir martadan ko'proq** o'tkazilishi mumkin.

YAngi **uch yil** muddatga saylangan Kuzatuv kengashining birinchi majlisi Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri tomonidan majlis chaqirilishi to'g'risidagi boshqa Kuzatuv

kengashi a'zolarini xabardor qilish orqali chaqiriladi. Kuzatuv kengashining ushbu majlisida Jamiyat Kuzatuv kengashi raisini saylash masalasi ko'rilishi shart.

Mazkur bandning **birinchi xatboshida** belgilangan shaxs tomonidan Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi yozma talab kelib tushgan taqdirda, Kuzatuv kengashining raisi kelib tushgan talabni ko'rib chiqishga majbur. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish to'g'risidagi talabda majlis kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan hamda majlis chaqirilishini talab qilayotgan shaxsning elektron manzili bo'lishi kerak. Talab taqdim etgan sanadan e'tiboran **o'n kun** ichida Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi majlisni chaqirish to'g'risida yoki majlisni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak. CHaqirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda talabda ko'rsatilgan masalani (masalalarni) ko'rib chiqish bo'yicha Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tegishli talab olinganidan boshlab **o'ttiz ish kunidan** kechiktirmay o'tkazilishi kerak. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi tomonidan majlisi chaqirish yoki bunday majlisni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori majlis chaqirishni talab qilgan shaxsga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran **uch ish** kunidan kechiktirmay elektron manzil orqali yuboriladi.

9.2.8. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum aniqlanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining kamida **etmish besh** foizi ishtirok etganida kворum hisoblanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni mazkur **bandida** nazarda tutilgan miqdorning **etmish besh** foizidan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat Boshqaruv Raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

9.2.9. Jamiyatning Kuzatuv kengashi majlisi kворumi mavjud bo'lgan taqdirda Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatli bo'ladi. Kuzatuv kengashi majlisini Kuzatuv kengashi raisi, u bo'lmagan taqdirda esa, uning Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri ochadi, majlis kun tartibini e'lon qiladi va majlisini olib boradi. Yig'ilish kun tartibi masalasi bo'yicha Kuzatuv kengashi raisi, Kuzatuv kengashi a'zosi yoki kun tartibi masalasi bo'yicha ma'ruza bilan taklif etilgan shaxs chiqishlari tinglanadi. CHiqishlarning natijalariga ko'ra kun tartibidagi masala muhokama qilinadi. Ovozga qo'yilgan savol bo'yicha ovoz beriladi. Kuzatuv kengashi raisi, u bo'lmagan taqdirda esa, uning Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri ovozga qo'yish natijalarini va qabul qilingan qarorni o'qib eshittiradi. Kun tartibiga qo'yilgan masalalar ko'rib chiqilishi natijasiga ko'ra, ko'rsatilgan shaxs yig'ilishni yopiq deb e'lon qiladi.

9.2.10. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar Kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi Qonun, o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning **ko'pchilik** ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining **har bir a'zosi bitta ovozga** ega bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi **hal qiluvchi ovoziga** huquqi ega.

Qonunning **18-moddasida** va mazkur Ustavning **4.6. bandida** ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan **bir ovozdan** qabul qilinadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishlari so'rov o'tkazish yo'li bilan shuningdek, videokonferens-aloqa rejimida o'tkazishi, Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi masofadan turib axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokonferens-aloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilishi mumkin, bunda majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishlari va ular bo'yicha ovoz berishlari mumkin. Jamiyat

Kuzatuv kengashining majlisi videokonferens-aloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda, majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi, ushbu majlis sirtdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan deb e'tirof etilmaydi.

Har chorakda ijro organining hisobotini eshitish bo'yicha kuzatuv kengashining majlislarini **sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi**

9.2.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng **o'n kundan** kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasidan ko'chirmani Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi imzolaniadi, u majlis bayonnomasi ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.

9.2.12. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning Boshqaruviga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

9.2.13. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari Qonunchilik bilan belgilangan me'yor doirasida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a'zolarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizomda belgilaniadi.

9.2.14. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va jamiyatning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

Jamiyat faqat mazkur jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomda belgilaniadi

9.2.15. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Kuzatuv kengashi a'zosi davlat ishtirokidagi korxonalar bilan bog'liq xar qanday masala yoki bitim bo'yicha xar qanday manfaatdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi shart.

Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida **bir foiziga** egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga etkazilgan zararlarning o'rmini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini jamiyatga mulkiy zarar etkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida etkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

9.3. Boshqaruv

9.3.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi Jamiyat **Boshqaruv** tomonidan amalga oshiriladi.

9.3.2. Jamiyat Boshqaruvi o'z ishini qonunchilik, Korporativ boshqaruv kodeksi va qoidalari, mazkur Ustav va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Boshqaruv to'g'risidagi nizom" asosida amalga oshiradi.

9.3.3. Jamiyat Boshqaruv a'zolarining soni **etti** kishidan iborat. Boshqaruv rahbari Boshqaruv Raisi hisoblanadi.

Boshqaruv tuzilishi va tarkibi Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra belgilanadi.

Kuzatuv kengashi tomonidan Boshqaruv a'zolari saylanadi va ular bilan uch yil muddatga shartnoma tuziladi. Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari Kuzatuv kengashining tavsiyasiga asosan umumiy yig'ilishda saylanadi (tayinlanadi). Boshqaruv raisligiga tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas. Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlari tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi va umumiy yig'ilishda tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi. Tanlovda xorijiy menedjerlar xam ishtirok etishi mumkin. Jamiyat Boshqaruv raisiga va uning o'rinbosarlariga nomzodlarni ko'rsatish va tavsiya berish qonunchilikda belgilangan shart va tartib asosida amalga oshiriladi.

Jamiyat Boshqaruv a'zolariga doir malaka talablari jamiyatning "Boshqaruv to'g'risidagi nizom"i bilan belgilangan yoki aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyat Boshqaruvi a'zolarining, shu jumladan Boshqaruv raisining, huquq va majburiyatlari tegishincha Qonun va boshqa qonun hujjatlarida, mazkur Ustavda, jamiyatning "Boshqaruv to'g'risidagi nizomi"da hamda ularning har biri Jamiyat bilan tuzadigan shartnomada belgilanadi.

SHartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyat Boshqaruvining Raisi bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak. Jamiyatning Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyatning Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, Jamiyat Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar etkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

Jamiyat tomonidan soliqlar va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga boshqa to'lovlar, davlat maqsadli fondlari, ish haqi va dividendlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik hosil bo'lganda, shuningdek, ketma-ket ikki chorak mobaynida biznes-rejaning asosiy parametrlari bajarilmagan taqdirda, Boshqaruv raisi bilan mehnat

munosabatlarini davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish yoki muddatidan avval bekor qilish to'g'risidagi qaror:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishda qatnashayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyadorlarning - aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan;

- kuzatuv kengashining majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, uning vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud jamiyat Boshqaruv rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyatning Boshqaruv a'zolarini shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida **har yili** qaror qabul qilinadi.

9.3.4. Jamiyatning Boshqaruv raisi vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

9.3.5. Jamiyat Boshqaruvning vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Boshqaruvining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

✓ aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etish;

✓ jamiyatning aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilmagan ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;

✓ jamiyatning uzoq muddatli istiqbolga oid rivojlanish strategiyasi va vazifalarni belgilash uchun besh yildan oshiq davr uchun uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kuzatuv kengashi va umumiy yig'ilishga chiqarish;

✓ jamiyatning biznes-rejasini ishlab chiqadi;

✓ jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari natijadorligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni muntazam ravishda kuzatuv kengashi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun tayyorlash;

✓ mahsulotlar sotib olish bo'yicha import shartnomalari (ularga qo'shimcha shartnomalar) va ularning texnik talablarini korxonalar rahbarining mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot-texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari bilan kelishish;

✓ zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturiy ta'minotlarni joriy qilish;

✓ jamiyatning strategik maqsadi sifatida aksiyalar narxining o'sishiga olib keluvchi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mehnat unumdorligi va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish, energiya samaradorligi va eksport ko'rsatkichlarining o'sishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirishni belgilash;

✓ jamiyat tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yig'ilishlarida o'zining vakillarini jamiyat nomidan ovoz berish tartibini belgilash;

✓ mansabdor shaxslarning malakasini o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali oshirish;

✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish narxlarini tasdiqlash;

- ✓ ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, ishlab chiqarish uskunalari, avtomototransport vositalarini hisobdan chiqarish hamda begonalashtirish bo'yicha bitimlarni tuzish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni doirasida xaridlarni amalga oshirish va bitimlarni tuzish;
- ✓ jamiyat foydasini taqsimlash to'g'risidagi tavsiyani tayyorlash uchun Kuzatuv kengashiga taklifni kiritish;
- ✓ Boshqaruv Raisi tomonidan kiritilgan masalalarni hal etish;
- ✓ Qonunchilik, Korporativ boshqaruv kodeksi va mazkur Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

9.3.6. Jamiyatning Boshqaruvi majlislarini o'tkazishni Boshqaruv raisi tashkil etadi, u Jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda Jamiyat boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, Jamiyatning Boshqaruvi o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

Jamiyat Boshqaruv majlislari uning raisi tomonidan zaruriyatiga ko'ra Boshqaruvining boshqa a'zolariga habar berish yuli bilan chaqiriladi.

Jamiyatning Boshqaruvi majlisi kворumi mavjud bo'lgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi vakolatli bo'ladi. Boshqaruv majlisini o'tkazish uchun kворum Boshqaruv a'zoliciga saylangan a'zolarining kamida **oltmish foizi** ishtirok etganida kворum hisoblanadi.

Boshqaruvining majlisida qarorlar agar qonun xujjatlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning **ko'pchilik** ovozi bilan qabul qilinadi.

Jamiyat Boshqaruvi majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi **bitta** ovozga ega bo'ladi. Boshqaruvning bir a'zosi o'z ovozini Boshqaruvning boshqa a'zoliciga yo'l qo'yilmaydi. Boshqaruv a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda Boshqaruvning qarorini qabul qilishda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi xal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Jamiyat Boshqaruvining majlisida bayonnoma yuritiladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng **uch kundan** kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Boshqaruv majlisining bayonnomasi Boshqaruv raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi, u majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Jamiyat Boshqaruvi majlisining bayonnomasidan ko'chirma Jamiyat Boshqaruv Raisi tomonidan imzolanadi, u majlis bayonnomasi ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.

9.3.7. Jamiyat Boshqaruvi raisi quyidagi vakolatlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish;

jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;

jamiyat nomidan xujjatlarni imzolash;

jamiyat nomidan bitimlar, shartnomalar, kontraktlar tuzish;

jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;

shtatlarni tasdiqlash xamda unga tegishli o'zgartishlar kiritish, Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga va me'yoriy hujjatlariga muvofiq jamiyat xodimlariga ish haqini (barcha turdagi ustamalar va mehnati bilan ishtirok etish ko'effitsientlari) belgilash;

jamiyatning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni va jamiyat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
jamiyat nomidan xarakat qilish uchun ishonchnomalar berish;
banklarda hisob-kitob va boshqa raqamlar ochish;
jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
muovinlar orasida majburiyatlarni taqsimlash va xodimlar ish majburiyatlari bo'yicha qo'llanmalarni tasdiqlash;
jamiyat biznes xatarlari va ijroiya organlari javobgarligini sug'urtalash;
aksiyadorlar, boshqaruv va nazorat organlari a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, xurmat, hisobdorlik va nazorat tamoyillari asosidagi xamkorlikni ta'minlash;
Jamiyatning aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining yoki Boshqaruv vakolatlariga kiritilmagan ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;
Jamiyat kundalik faoliyatini amalga oshirish va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining yoki Boshqaruv vakolatlariga kiritilmagan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish.

9.3.8. Boshqaruv raisi quyidagilarga majbur:

jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, yillik biznes-rejalari, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini ta'minlash;
Jamiyatni malakali xodimlar bilan ta'minlash, xodimlarning bilimlari, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan samarali ravishda foydalanish bo'yicha choralarni ko'rish;

Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishi va mehnati muhofaza qilinishini ta'minlash;

Jamiyat va uning xodimlari tomonidan Jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

Jamiyat mansabdor shaxslarining malakasini o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali oshirish;

Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tegishli holati va haqqoniyligi tashkil qilinishini ta'minlash, shu jumladan, e'lon qilish maqsadida Moliyaviy xisobotlar xalqaro standartlariga transformatsiyasini tashkillashtirish va qonun xujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qilish;

jamiyat mulkini begonalashtirishni, uni sotish shakli va mexanizmini, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan kuzatuv kengashi bilan kelishish;

jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanishni faqat kuzatuv kengashining tegishli qarori qabul qilinganda amalga oshirish;

jamiyat ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini "E-auksion" elektron savdo platformasida sotish va ijaraga berilishini ta'minlash;

ichki hujjatlarga, amaldagi qonun hujjatlariga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

bir yilda bir marta aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida yillik xisobotni, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xisobotlarni taqdim etish;

har chorakda kuzatuv kengashi oldida jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishining holati va jamiyatning rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida, **maballiyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari natijadorligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha** hisobot berish;

tegishli organlar, aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalarida Jamiyatning har yilgi moliyaviy va boshqa hisoboti, faoliyati to'g'risidagi axborot va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi va chop etilishini nazorat qilish;

aksiyadorlarga qonunchilik bilan beriladigan huquqlarini himoya qilishini ta'minlash; ma'muriy xarajatlar hisobi va boshqalar bilan tasdiqlangan mablag'lar doirasida mol-mulkni sotib olish va xarajatlarni amalga oshirish;

shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning ijrosini ta'minlash; qonunchilik, mazkur Ustav va "Boshqaruv to'g'risidagi nizom"ga muvofiq boshqa majburiyatlar.

9.3.9. Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra Jamiyat Boshqaruv raisi va Boshqaruvning boshqa a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) Boshqaruvning a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni qoplanishi (kompensatsiya qilinishi) mumkin.

Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari Qonunchilik bilan belgilangan me'yor doirasida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a'zolarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi. Nizomda belgilangan to'lovlar miqdoridan tashqari har qanday qo'shimcha to'lov turlari taqiqlanadi.

Vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda Boshqaruv raisi rag'batlantirishga yo'l qo'yilmaydi.

9.3.10. Jamiyat Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Boshqaruv a'zosi davlat ishtirokidagi korxonalar bilan bog'liq xar qanday masala yoki bitim bo'yicha xar qanday manfaatdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi shart.

Agar jamiyatning Boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar etkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Boshqaruv vakillari Boshqaruv organiga a'zolar saylash masalasida ovoz berish xuquqiga ega emas.

Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida **bir foiziga** egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga etkazilgan zararlarning o'rmini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyatning Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud jamiyatning Boshqaruv a'zosini jamiyatga mulkiy zarar etkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

Jamiyatning Boshqaruv a'zosi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida etkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

9.4. Minoritar aksiyadorlari qo'mitasi.

9.4.1. Jamiyat aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish jamiyat aksiyadorlari orasidan saylangan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Minoritar aksiyadorlari qo'mitasini ta'minlash xarajatlari jamiyat mablag'lari xisobidan qoplanadi.

9.4.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar jamiyatga jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda ularning birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.

9.4.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni 3 kishidan iborat.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga jamiyatning boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari, shuningdek jamiyatning kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

9.4.4. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyatning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

- qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

9.4.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

9.4.6. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha jamiyatning hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

9.4.7. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

9.4.8. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga, xujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan jamiyat Boshqaruvi faoliyatiga to'sqinlik qilishiga haqli emas.

9.4.9. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyatiga jamiyat kuzatuv kengashining yoki ijroiya organining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

9.5. Ichki audit Xizmati

9.6.1. Jamiyatning **ichki audit Xizmati**ning asosiy vazifalari mazkur Ustavining **IX bo'lim 9.4. bandi uchinchi xatboshida** belgilangan.

9.6.2. Jamiyatning ichki audit Xizmati o'z faoliyatini, agar qonunda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga, Korporativ boshqaruv kodeksi hamda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ichki audit Xizmati to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

9.6.3. Ichki audit Xizmati ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

9.6.4. Ichki audit Xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga va audit qo‘mitasiga hisobdordir.

9.6. Auditorlik tashkiloti

9.7.1. **Auditorlik tashkiloti** – auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

9.7.2. Jamiyat **har yili** yillik moliyaviy hisobotini tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatdorlikda bo‘lmagan auditorlik tashkilotini jalb qilishi shart.

Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro‘yxatdan kelib chiqqan holda tanlov asosida amalga oshiriladi.

Jamiyat aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiladigan aksiyadorlar jamiyatning faoliyatini tekshirish uchun tashqi auditni boshlash huquqiga ega.

9.7.3. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

9.7.4. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto‘g‘ri yakun bayon etilgan auditorlik xulosasi tuzganlik oqibatida etkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo‘ladi.

9.7. Korporativ maslaxatchi

9.8.1. Jamiyat kuzatuv kengashiga xisobdor bo‘lgan va korporativ qonun xujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini jamiyat korporativ maslaxatchisi bajaradi.

9.8.2. Jamiyat korporativ maslaxatchisining faoliyati Korporativ boshqaruv Kodeksi va jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan “Korporativ maslaxatchi to‘g‘risida” nizom asosida amalga oshiriladi.

X. Hisob va hisobot

10.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

10.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga **har yilgi** hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat Boshqaruvi zimmasida bo‘ladi.

10.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko‘rsatilgan va aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma‘lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

10.4. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi yillik va choraklik hisobotlari Boshqaruv Raisi tayyorlaydi.

10.5. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi yillik va choraklik hisobotlari qonunchilik talablariga ko‘ra tuziladi.

10.6. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik Umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan **o‘n** kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

10.7. Jamiyat Xalqaro moliyaviy xisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy xisobotini u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e‘lon qilishi shart.

XI. Hujjatlarni saqlash

11.1. Jamiyat:

Jamiyatning Ustavini, Ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;

Jamiyatning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni; aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;

Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi haqidagi nizomni;

Jamiyatning yillik hisobotini;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorlarni;

aksiyalar emissiyasi risolasini;

buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;

tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;

Jamiyat aksiyadorlari Umumiy yig'ilishlarining, Kuzatuv kengashl va Boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Boshqaruv Raisining buyruqlarini;

Jamiyatning affillangan shaxslari ro'yxatlarini;

Jamiyat aksiyadorlarining reestrlarini;

Jamiyat auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart.

Jamiyat qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

XII. Aksiyadorlarga jamiyat hujjatlaridan foydalanish imkoniyatini berish

12.1. Jamiyat mazkur Ustavining **11.1.-moddasida** nazarda tutilgan hujjatlardan aksiyadorlarning foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, bundan buxgalteriya hisobiga doir hujjatlar, Boshqaruv majlislarining bayonnomalari, shuningdek Jamiyat Boshqaruv raisining buyruqlari va Jamiyat aksiyadorlarining reestri mustasno.

12.2. Jamiyat aksiyadorning yozma talabiga ko'ra unga mazkur Ustavda nazarda tutilgan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini haq evaziga taqdim etishi shart.

Haq miqdori Jamiyat tomonidan belgilanadi hamda hujjatlarning ko'chirma nusxalarini tayyorlash xarajatlarining qiymatidan va hujjatlarni pochta orqali jo'natish bilan bog'liq xarajatlardan ortib ketmasligi kerak.

Jamiyat so'ralayotgan hujjatlarni aksiyadorga elektron shaklda taqdim qilishga haqli.

12.3. Jamiyat aksiyadorning yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga ko'ra **uch** ish kuni ichida ularga Jamiyatning Ustavi, shu jumladan Ustavga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra unga Jamiyat Ustavining ko'chirma nusxasini berishi shart.

12.4. Aksiyador (aksiyadorlar) yirik bitimni yoki affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo arizasini sudga ko'rib chiqish chog'ida jamiyatdan va guvohlardan sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni olishga haqli, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno.

XIII. Jamiyat va Jamiyatning affillangan shaxslari to'g'risidagi axborot

13.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda o'zi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishni amalga oshirishi shart.

Agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan fond birjasining rasmiy veb-saytida jamiyat Ustavining matnini, shu jumladan unga doir o'zgartish va qo'shimchalarni, shuningdek oshkor etilishi majburiy bo'lgan boshqa axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilishi shart.

Jamiyat Korporativ axborotning yagona portalida va jamiyatning rasmiy veb-saytida boshqa yuridik shaxslarning 5 va undan ortiq foiz aksiyalariga (ulushlariga, paylariga) egalik qilishi to'g'risidagi axborotni e'lon qilishi shart. Bunda mazkur axborot aksiyalar (ulushlar, paylar) olingan paytdan e'tiboran 72 soat ichida e'lon qilinishi kerak.

Fond birjasining rasmiy veb-saytida axborotning oshkor qilinganligi Jamiyatni qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat organlarining yozma so'roviga ko'ra axborot taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

13.2. Jamiyatning affillangan shaxsi qonunchilik muvofiq affillanganlik asoslari vujudga kelgan paytdan e'tiboran **uch ish** kunidan kechiktirmay Jamiyatni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan ma'lumotlarni batafsil ko'rsatgan holda o'zining affillanganligi to'g'risida yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Agar affillangan shaxsning aybi bilan ko'rsatilgan axborot taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida Jamiyatga mulkiy zarar etkazilgan bo'lsa, affillangan shaxs Jamiyat oldida o'zi etkazgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

13.3. Jamiyat o'zining affillangan shaxslari hisobini yuritishi va ular to'g'risida qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisobot taqdim etishi shart. Jamiyat affillangan shaxslar ro'yxatini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda **har yili** e'lon qilishi shart.

XIV. Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish

14.1. Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining **o'n besh** foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno.

14.2. Yirik bitim Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin Jamiyatning Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

14.3. Yirik bitim tuzishi to'g'risidagi qaror Qonunga muvofiq qabul qilinadi.

14.4. Insayderlik ma'lumotlaridan foydalangan xolda bitimlarni tuzish taqiqlanadi.

XV. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish

15.1. Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur Jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi.

15.2. Jamiyatning affillangan shaxslari deb qonunchilik muvofiq e'tirof etiladi.

15.3. Affillangan shaxs Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlar berishi, ushbu shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o'rganishi va affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilish tartiblari, hamda affillangan shaxs bilan bitimlar tuzishdagi istisnolar qonunchilikda belgilanadi.

15.4. Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim ayni bir vaqtda yirik bitim bo'lsa, bitimni tuzish tartibiga Qonunchilikda belgilangan yirik bitim tuzishga doir qoidalar qo'llaniladi.

XVI. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

16.1. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

16.2. Jamiyat Umumiy yig'ilish qaroriga yoki sudning qaroriga ko'ra tugatilishi mumkin.

16.3. Jamiyatni tugatilishi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

XVII. Yakuniy qoidalar

17.1. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

17.2. Mazkur Ustavda o'z aksini topmagan masalalar Qonun hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

17.3. Agar qonunchilikda mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar bo'lsa, qonunchilik qoidalari qo'llaniladi.

«BIOKIMYO» aksiyadorlik jamiyati
Boshqaruv raisi



R.A.Alikulov